



SUD AMALIYOTI MA'LUMOTLAR BAZALARINING HUQUQIY TAHLILDAGI AHAMIYATI.

Hobilova O'g'iloy Zafarjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy

odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

ogiloyxobilova@gmail.com

+998912017907

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577582>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 08- noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 11- noyabr 2025 yil

KEY WORDS

sud amaliyoti, ma'lumotlar bazasi, huquqiy tahlil, Legal Tech, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, ochiq ma'lumotlar..

ABSTRACT

Ushbu maqola sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy tahlil jarayonidagi o'rni, afzalliklari va muammolarini keng yoritadi. Raqamli texnologiyalar davrida huquqshunoslik fanida Legal Tech yo'nalishining jadal rivojlanishi sud amaliyoti ma'lumotlarini tahlil qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sud qarorlarining ochiqligi, ularni tizimlashtirish, tahlil qilish va natijalarini solishtirish orqali adolatli qarorlar chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Maqolada O'zbekiston Respublikasi sud amaliyoti bazalari tahlil qilinadi va ular AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya, hamda Rossiya tajribalari bilan qiyoslanadi. Tadqiqotning maqsadi — sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy tahlil sifatini oshirishdagi o'rnini aniqlash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdir.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining tezkor rivojlanishi huquqiy sohada ham chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, sud amaliyoti ma'lumotlar bazalari, ularning huquqiy tahlili, sud qarorlarini o'rganish, hamda normativ-huquqiy amaliyotni tizimlashtirishda muhim manba sifatida shakllanmoqda. Shu bois, mazkur mavzuning dolzarbligi zamonaviy huquqiy islohotlar, raqamlashtirish siyosati va adolatli sudlov tizimini ta'minlashda sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining o'rni tobora ortib borayotganligi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida **“Elektron hukumat to'g'risida”**gi Qonun (2015-y.), **“Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”** gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-140-son), **“Elektron raqamli imzo to'g'risida”** gi Qonun (2023-y.) va boshqa normativ

hujjatlar sud jarayonlarini elektronlashtirish, sud qarorlarini ochiq ma'lumotlar sifatida taqdim etish, hamda sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarini shakllantirishni huquqiy asos sifatida belgilab berdi. Bu esa nafaqat yuristlar, balki tadqiqotchilar, huquqshunos olimlar, talaba va amaliyotchilar uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega jarayondir.

Tadqiqotning *asosiy muammosi* — mavjud sud amaliyoti ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish mexanizmlari, ularning tahlilga yaroqliligi, shaffoflik va ma'lumotlar ishonchliligi darajasini aniqlashdir. Shuningdek, ma'lumotlar to'liq raqamlashtirilmaganligi, maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasidagi muammolar, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, AI asosidagi avtomatik tahlil hali yo'lga qo'yilmaganligi, sud qarorlari formatining yagona emasligi, huquqiy xatoliklar va noto'g'ri talqin xavfi, yuridik savodxonlik darajasining pastligi kabi bir qator muammolarda tadqiqotimizning qanchalik dolzarb mavzuda ekanligini ko'rish mumkin.

Tadqiqotning *maqsadi* — sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy tahlildagi ahamiyatini aniqlash, ularning imkoniyatlari va kamchiliklarini tahlil qilish, shuningdek, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat: Sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy asoslarini o'rganish; O'zbekiston va xorijiy tajribalarni taqqoslash; Ma'lumotlar bazasidagi axborotlarning huquqiy tahlilda qo'llanilish imkoniyatlarini baholash; Tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shuningdek, tadqiqot yuzasidan berilgan quyidagi bir qator savollarga ham javob berishga harakat qilinadi.

- 1.Sud amaliyoti ma'lumotlar bazalari huquqiy tahlilda qanday rol o'ynaydi?
- 2.Ma'lumotlar bazalarining ochiqligi va ishonchliligi darajasi qanday ta'minlanmoqda?
- 3.Xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini O'zbekistonda qanday qo'llash mumkin?

Material va metodlar. Ushbu maqolada, **huquqiy tahlil metodi**- sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy asoslari, ularni tartibga soluvchi normativ -huquqiy hujjatlar bilan o'rganiladi. Bundan tashqari, **qiyosiy-huquqiy metodi** ya'ni bunda O'zbekiston tajribasi xorijiy davlatlarning sud amaliyoti bazalari bilan solishtirib o'rganiladi. Shuningdek, **statistik tahlil metodi**- ochiq manbalardagi ma'lumotlar asosida sud qarorlarining soni, ularning tahlil uchun yaroqlilik darajasi va foydalanish ko'rsatkichlari umumlashtirilib o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida **SWOT tahlil metodologiyasi** qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida O'zbekistondagi sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining huquqiy tahlildagi rolining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlaniladi.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, sud amaliyoti ma'lumotlar bazalari bugungi kunda huquqiy tahlil jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday bazalar sud qarorlarini to'plash, saqlash va tizimlashtirish orqali nafaqat huquqshunoslar, balki tadqiqotchilar, talabalar va amaliyotchilar uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Dastlab, biz bilishimiz kerak bo'lgan huquqiy atamalar bilan tanishib chiqamiz. Sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi o'zi nima? ¹Sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi (ba'zan "sud qarorlari bazasi", "case law database", "judicial practice database") — bu sud organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, sud instansiyalari vakolatlari doirasidagi interpretativ pozitsiyalar, amaliy misollar va ularning tahliliy sharhlari, va boshqa sud faoliyatiga oid

¹ Staškiewicz, W. & Stawecki, T. (2012). *Legal Databases and Their Functions in the Process of Interpreting and Applying the Law*. Polish Yearbook of Law and Administration, Vol. 17. CEJSH

ma'lumotlarni jamlovchi, strukturaviy va qidiruvga yaroqli shaklda tashkil etilgan elektron resursdir.²**Sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi**— bu aslida sudlar tomonidan chiqarilgan turli qarorlar, hukmlar va ularning izohlari bir joyda to'plangan maxsus elektron tizimdir. Ya'ni, bu bazada sud ishlarining natijalari, sudya qanday asosda qaror chiqargani, qaysi qonun moddasiga tayanilgani, o'xshash ishlar bo'yicha qanday qarorlar bo'lgani kabi ma'lumotlar jamlanadi. Bunday ma'lumotlar bazasi oddiy fayllar to'plami emas — u **tizimli va qulay shaklda** tuziladi. Masalan, foydalanuvchi qidiruv oynasiga “mehnat nizosi” yoki “ajrim ishi” deb yozsa, shu mavzuga oid barcha sud qarorlarini topa oladi. Bu tizim ³**semantik qidiruv** deb ataladi.

Huquqiy tahlil nima? - bu huquqiy hujjatlar, qonunlar va sud qarorlarini mantiqiy, tizimli va tahliliy yondashuv asosida o'rganish jarayoni. Uning asosiy maqsadlari **1.**Qonunlarni to'g'ri talqin qilish; **2.**Huquqiy nizolarda asosli qaror chiqarish; **3.**Sud amaliyotini tahlil qilish orqali barqarorlikni ta'minlash va hk.

Sud amaliyoti bazalarining huquqiy tahlildagi ro'li. Asosiy rollar:

Izchillik: O'xshash ishlar uchun turlicha qarorlar chiqmasligiga yordam beradi.

Tahliliy vosita: Qarorlarni solishtirish, statistik natijalar olish imkonini beradi.

Sudyalarga yordam: O'xshash pretsedentlarni topish orqali xolis qaror chiqariladi.

Fuqarolarga ochiqlik: Har bir kishi sud qarorini ko'rib chiqish va tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi.

Sud amaliyoti bazasining eng katta foydasi shundaki, u **huquqshunoslarga, talabalar va tadqiqotchilarga** o'xshash ishlarni tahlil qilish, qarorlar orasidagi farqlarni ko'rish, qonunlarning amalda qanday qo'llanayotganini tushunish imkonini beradi. Shu orqali sud qarorlarini yanada adolatli va bir xilda chiqarish uchun sharoit yaratiladi.

Oddiy qilib aytganda, bu baza — bu “sudlar xotirasi” yoki “sud arxivi” ning elektron shakli bo'lib, u nafaqat hujjatlarni saqlaydi, balki ularni **tahlil qilish, solishtirish va o'rganish uchun qulay vosita** hamdir.

O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi sud.uz⁴ yoki my.sud.uz ya'ni “Sud hujjatlari e'lon qilinadigan yagona portal” orqali joylashtiriladi. Ushbu portal – bu **rasmiiy huquqiy platform**, u orqali:

Fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha qarorlar;

Sud amaliyotiga oid sharhlar va statistic ma'lumotlar;

Sud tizimidagi yangliklar e'lon qilinadi.

Sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi quyidagi normativ hujjatlar asosida yuritiladi:

² <https://sud.uz/la/plenum-la/documents-civil-la/>

³ https://www.shopify.com/blog/semantic-search?term=&adid=775804629778&campaignid=19685772937&utm_medium=cpc&utm_source=google&gad_source=1&gad_campaignid=19685772937&gclid=Cj0KCQjw35bIBhDqARIsAGjd-cYIPZI8dOENwLnTdwLkFg1h7XVm3W1_ANWfDHGImxqVyo0K9JNw7gaAst6EALw_wcB

⁴ <https://sud.uz>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (33-moddasidagi norma ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi)

“Sudlar to'g'risida” gi qonun. Sud qarorlari ochiq e'lon qilinadi va qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Pf-6034-son farmoni. Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. Sud hujjatlarini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash tizimini takomillashtirish.

Oliy sud Plenumining qarorlari. Sud amaliyotini bir xillikda yuritish bo'yicha tavsiyalarni belgilaydi.

Texnik asoslar.

Ma'lumotlar **elektron raqamli imzo**⁵(ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo; YA'NI ushbu imzo bilan tasdiqlanadi.

Sud qarorlari **anonym (anonymizatsiya)** qilinadi (ya'ni, shaxslarning shaxsga oid ma'lumotlari, F.I.SH. yashiriladi.

Platforma Avtomatlashtirilgan sud ish yuritish axborot tizimi bilan integratsiyalashgan.

Bundan tashqari ⁶public.sud.uz ya'ni sud hujjatlarini internet tarmog'ida chop etish. O'zbekistonda sud hujjatlari, ya'ni sud qarorlari va boshqa tegishli hujjatlarni onlayn e'lon qilishga mo'ljallangan rasmiy internet portali.. Bu portal orqali fuqaro yoki tashkilot sudlar tomonidan qabul qilingan yakuniy qarorlar yoki boshqa huquqiy hujjatlarni ko'rishi mumkin bo'ladi. Ma'lumotlar “ochiqlik” va “ shaffoflik” tamoyillari doirasida joylashtirib boriladi.

O'zi sud tizimi nima va O'zbekistonda bu qanday ishlaydi? Quyida shu haqida kengroq ma'lumotlar berilib yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasining **“Sudlar to'g'risida”** gi qonunining 2-moddasiga qaraydigan bo'lsak, bunda O'zbekiston Respublikasida sud tizimi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

Harbiy sudlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

Qoraqolpag'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;

Tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

Tumanlararo ma'muriy sudlaridan iborat.

Yuqoridagilardan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida

⁵ <https://gov.uz/oz/soliq/sections/view/11769>

⁶ <https://public.sud.uz/report>

bajarilishi majburiy bo'ladi. Shuningdek, Oliy sud quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ham ega. (O'zR Konstitutsiyasi, 134-modda).

Yuqoridagi keltirib o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi <https://sud.uz>,

"Sudlar to'g'risida"gi Qonun va PF-6034-son Prezident Farmoni bilan tartibga solinadi. Mazkur baza orqali sud qarorlari ochiqligi ta'minlanmoqda, bu esa fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, ayrim qarorlar to'liq e'lon qilinmaydi yoki kechikib joylanadi, bu esa axborotga teng kirish huquqining to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Natija: huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanish mexanizmlari to'liq ishlamayapti.

O'zbekistonda sud qarorlari sud.uz portalida e'lon qilinadi, lekin izlash, filtrlash va tahlil qilish tizimi hali to'liq rivojlanmagan.

Rossiya Federatsiyasida bu jarayon ⁷sudrf.ru portali orqali yuritiladi, u yerda ish turi, sanasi, sud bosqichi, qaror turi bo'yicha qidiruv mavjud.

AQSHda esa ⁸PACER (Public Access to Court Electronic Records) tizimi orqali barcha federal sud qarorlari pullik, ammo to'liq ochiq shaklda taqdim etiladi. Natija: ochiqlik va hisobdorlik mukammal yo'lga qo'yilgan, foydalanuvchi uchun tahliliy qulayliklar keng.

Buyuk Britaniyada sud amaliyoti ma'lumotlari BAILII (British and Irish Legal Information Institute) platformasida joylashtiriladi. Bu tizim ochiq va bepul bo'lib, unda barcha sud instansiyalari qarorlari mavjud. Platformada ilg'or qidiruv tizimi, ish turlari bo'yicha saralash va yil, mavzu yoki sud bosqichi bo'yicha filtrlash imkoniyatlari mavjud. Sud qarorlari ochiqlik va precedential (pretsedent) tizim uchun asosiy manba hisoblanadi. Natija: ⁹BAILII – sud amaliyotini huquqshunoslik tahlilida qo'llash uchun eng qulay va shaffof tizimlardan biri.

Estoniya Yevropadagi eng raqamlashtirilgan sud tizimlaridan biriga ega. U yerda ¹⁰E-toimik (e-File) deb nomlangan yagona elektron sud tizimi ishlaydi. Sud qarorlari va protsessual hujjatlar to'liq elektron shaklda yuritiladi, foydalanuvchilar sud jarayonini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega. Estoniya tizimi blokcheyn texnologiyasi asosida ma'lumotlarning o'zgarmasligini kafolatlaydi. Natija: raqamli xavfsizlik va shaffoflik yuqori, O'zbekiston uchun ilg'or texnologik model sifatida ahamiyatli.

Qiyosiy huquqiy metod.

Davlat	Tizim nomi	Ochiqlik darajasi	Texnik rivojlanish	Foydalanish imkoniyati
O'zbekiston	sud.uz	O'rta	Rivojlanish bosqichida	Bepul
AQSH	PACER	Juda yuqori	Juda rivojlangan	Pullik
Buyuk Britaniya	BAILII	Yuqori	Rivojlangan	Bepul
Estoniya	e-Toimik	Juda yuqori	Juda rivojlangan (Blokcheyn asosida)	Qisman bepul

⁷ <http://sudrf.ru>

⁸ <https://pacer.uscourts.gov/>


⁹ https://www.bailii.org/uk/cases/UKET/2024/3308194_2023.html

¹⁰ <https://etoimik.rik.ee/>

Rossiya	sudrf.ru	O'rta	Rivojlangan	Bepul
---------	----------	-------	-------------	-------

2020–2024-yillar oralig'ida “sud.uz” portalida e'lon qilingan sud qarorlari soni har yili o'sib bormoqda, bu ochiqlik siyosatining samarasini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ba'zi tuman va viloyat sudlarining qarorlari portalda to'liq aks etmayapti. Foydalanuvchilar soni va murojaatlar statistikasi sud tizimiga bo'lgan jamoatchilik ishonchining ortib borayotganini bildiradi. Natija: ochiqlik ortmoqda, ammo ma'lumotlar sifati va to'liqligi bo'yicha tizimda muammolar saqlanib qolgan. Quyidagi jadvalda tushunarli tarzda tahlil qilingan:

Statistik tahliliy metod.



SWOT tahlil asosidagi natijalar:

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
<ul style="list-style-type: none"> • Normativ asoslar mavjud • Portal tizimi ishlayapti • Ochiqlik siyosati mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> • Qarorlar to'liq e'lon qilinmaydi • IZlash tizimi murakkab • Anonimizatsiya ba'zida ortiqcha qo'llanadi
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli sud tizimini kengaytirish • Xalqaro integratsiya (E-Court tizimi) 	<ul style="list-style-type: none"> • Ma'lumotlar maxfiyligining buzilishi • Texnik xatolar va kiberxavfisizlik
<p>→ Umumiy natija: tizimning huquqiy poydevori mustahkam, ammo axborot sifati, texnik imkoniyatlar va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.</p>	

Endi Yuqoridagi SWOTning tahlilini kengroq yoritib berishga harakat qilamiz.

Kuchli tomonlar (Strengths - S)

1. Normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi.

O'zbekistonda sud qarorlarini e'lon qilish jarayoni Prezident farmonlari, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarorlari bilan tartibga solingan. Bu esa tizimning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Masalan: 2020-yilda qabul qilingan PF-6034-son Farmon sud qarorlarini ommaga ochiq e'lon qilishni majburiy qilib belgiladi.

2. Portal tizimining amalda ishlashi.

"sud.uz" portali orqali fuqarolar, advokatlar va tadqiqotchilar sud qarorlarini topish va o'rganish imkoniga ega. Bu sud tizimi faoliyatida shaffoflikni oshiradi.

Masalan: Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha minglab qarorlar ochiq joylashtirilgan.

3. Ochiqlik siyosatining mavjudligi.

O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlar konsepsiyasi" asosida sud qarorlarini elektron tarzda e'lon qilmoqda. Bu esa xalqaro reytinglarda mamlakatning huquqiy shaffoflik darajasini oshiradi.

Zaif tomonlar (Weaknesses - W)

1. Qarorlarning to'liq e'lon qilinmasligi.

Ba'zi tuman yoki viloyat sudlarining qarorlari portalda joylashtirilmaydi yoki kechiktirib e'lon qilinadi. Bu esa ma'lumotlarning to'liqligi va tizimligini pasaytiradi.

Masalan: ayrim jinoyat ishlari bo'yicha qisqartirilgan shaklda e'lon qilinadi, bu esa tahliliy ishlarda noaniqlik keltirib chiqaradi.

2. IZlash tizimining murakkabligi.

Portalda foydalanuvchilar sud turi, sanasi, yoki ish raqami bo'yicha qidirish imkoniga ega, biroq bu jarayon intuitiv qulay emas.

Masalan: inglizcha yoki ruscha so'zlar bilan qidirish imkoni cheklangan.

3. Anonimizatsiyaning ortiqcha qo'llanilishi.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish maqsadida ba'zan keraksiz joylar ham yashiriladi, bu esa qarorni huquqiy tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Masalan: "javobgar" yoki "davogar" o'rniga faqat "F." deb yozilishi qaror mohiyatini tushunishni murakkablashtiradi.

Imkoniyatlar (Opportunities - O)

1. Raqamli sud tizimini kengaytirish.

"Sud.uz"ni yagona E-SUD, E-COURT yoki Yagona huquqiy ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish imkoniyati mavjud.

Masalan: Estoniya yoki Singapurda bo'lgani kabi barcha protsessual bosqichlarni onlayn kuzatish tizimini yaratish mumkin.

2. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish.

O'zbekiston BAILII (Buyuk Britaniya) yoki PACER (AQSh) tizimlari bilan texnik va huquqiy tajriba almasha, portal sifatini oshiradi.

Masalan: xalqaro sud ochiqligi standartlariga (Open Justice Data Standards) qo'shilish.

3. Foydalanuvchi tahlil xizmatlarini joriy etish.

Sud qarorlaridan statistik va analitik ma'lumotlar chiqaruvchi modul yaratish orqali ilmiy tadqiqot va qonunchilik monitoringini soddalashtirish mumkin.

Tahdidlar (Threats - T)

1. Ma'lumotlar maxfiylikning buzilishi xavfi.

Sud qarorlarida shaxsiy ma'lumotlar mavjudligi sababli kiberhujumlar yoki noto'g'ri e'lonlar xavfi yuqori.

Masalan: texnik xatolik sababli himoyalangan fayllarning tarqalishi jiddiy huquqiy oqibatlarga olib keladi.

2. Texnik xatolar va tizim nosozliklari.

Portalda ma'lumot yuklanishi, serverdagi xatoliklar, yoki texnik xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar foydalanuvchilar ishonchini kamaytiradi.

Masalan: ayrim paytlarda portal vaqtincha ishlamay qoladi yoki eski qarorlar yo'qolib qoladi.

3. Huquqiy va kiberxavfsizlik nazoratining sustligi.

Raqamli tizimlar tez rivojlanayotgan sharoitda yangi xavflar paydo bo'lmoqda — masalan, ma'lumotlar manipulyatsiyasi yoki tahriflash holatlari.

Biroq tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud tizimda axborot sifati, foydalanuvchi qulayligi va texnik ishonchlilik jihatidan ayrim kamchiliklar mavjud. Ayrim sudlarning qarorlari portalda kech e'lon qilinadi, izlash tizimi esa murakkab bo'lib, bu ochiqlik siyosatining samaradorligini to'liq ta'minlamaydi.

Taklif va yechimlar:

1. Yagona E-SUD tizimini yaratish.

Sud qarorlari, protsessual hujjatlar va ish yurituvlari yagona elektron tizimda birlashtirilsa, ma'lumotlar takrorlanishini oldi olinadi va ularning to'liqligi ta'minlanadi.

2. Portalning texnik imkoniyatlarini kengaytirish.

Qidiruv tizimini soddalashtirish;

Sud qarorlarini tur, sana, soha va sud bosqichi bo'yicha filtrlash imkonini kengaytirish;

Foydalanuvchilar uchun avtomatik tahlil va statistik modullarni joriy etish.

3. Anonimizatsiya siyosatini takomillashtirish.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilgan holda, huquqiy mazmuni buzmaydigan optimal mexanizm ishlab chiqish zarur. Bu ilmiy tadqiqot va huquqiy monitoring uchun qulaylik yaratadi.

4. Xalqaro tajribani joriy etish.

Buyuk Britaniyaning BAILII, Estoniyaning e-Toimik va AQShning PACER tizimlari tajribasidan kelib chiqib, sud.uz portalini raqamli sud ma'lumotlarining xalqaro standartlariga moslashtirish maqsadga muvofiq.

5. Kiberxavfsizlik va texnik nazoratni kuchaytirish.

Portalda ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash uchun blokcheyn texnologiyasi, ikki bosqichli autentifikatsiya va zaxira saqlash tizimlarini joriy etish lozim.

6. Ochiqlik va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash.

Sud organlarining ochiq ma'lumotlar siyosati keng jamoatchilik ishonchini oshiradi. Shuning uchun qarorlarning muntazam e'lon qilinishi va tahliliy hisobotlarning yillik ravishda taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari,

Yagona milliy sud ma'lumotlar bazasini yaratish va barcha instansiyalarni ulash.

Qarorlarni metadata bilan saqlash (masalan: mavzu, sana, sud turi).

Sud qarorlarini AI asosida tahlil qiluvchi dastur ishlab chiqish.

Huquqshunoslik ta'limida LegalTech yo'nalishini chuqurlashtirish.

"Sud.uz" portalini xalqaro tizimlar (EUR-Lex, HUDOC) bilan integratsiya qilish kabi bir qator zamonaviy taklif va tavsiyalarni kiritish va ularni sud tizimida implementatsiya qilish, albatta, har taflama o'z samarasini ko'rsatadi.

Umumiy xulosa:

Sud amaliyoti ma'lumotlar bazalarining rivojlanishi – bu nafaqat texnik, balki huquqiy madaniyatni yuksaltirish omilidir. O'zbekiston uchun mazkur yo'nalishda xalqaro standartlarga yaqinlashish, shaffoflikni oshirish va ma'lumotlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish eng muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi sud tizimida raqamli islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida "sud.uz" portali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sud amaliyoti ma'lumotlar bazalari fuqarolarga, advokatlarga va tadqiqotchilarga huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, sud qarorlarini o'rganish hamda qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ! References!:

1. <https://lex.uz/uz/>

2. "Sudlar to'g'risida "gi qonun. <https://lex.uz/docs/-5534923>
<https://public.sud.uz/report>

3. PF-6034-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4910826>

4. Xorijiy adabiyotlar.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=judicial+practice&oq=judicial+practi#d=gs_qabs&t=1762020094968&u=%23p%3Dj4kjavPrKHUJ

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&qsp=3&q=judicial+practice+russian+federation&qst=ib#d=gs_qabs&t=1762020155964&u=%23p%3DrZHVZI3b09Mj

5. Защита данных: научно-практический комментарий к судебной практике

Валерий Лазарев, Х Гаджиев

Litres, 2022

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy veb-portali – <https://www.sud.uz>

7. British and Irish Legal Information Institute (BAILII) – <https://www.bailii.org>

8. Public Access to Court Electronic Records (PACER), United States Courts – <https://pacer.uscourts.gov>

9. Estonian e-Toimik System – <https://www.e-toimik.ee>

10. Российская база судебных актов (sudrf.ru) – <https://sudrf.ru>

11. Milliy adabiyotlar.

12. OECD (2021). Open Justice Data Standards: Enhancing Transparency in the Judiciary. Paris: OECD Publishing.

